

Muhammad Yusuf ijodiga bir nazar

O.Norov, QVPKQTMOI qituvchisi

Har qanday badiiy asarning mohiyatini anglamoq uchun ijodkor ruhiyat dunyosiga juda yaqinlashmoq kerakki, busiz ilmiy-nazariy talqinlar yuzaroqda qolib ketishi mumkin. Negaki, ijod psixologiyasi juda murakkab va serqatlam olamdirki, buni ijodkor badiiy niyatini to'la anglamay turib kashf etish mumkin bo'lmay qoladi.

Malumki, Alisher Navoiyning "Sabbai sayyor" dostonida

Yuz yoshurg'och quyosh diloromi,
Sochti ashkin sipehr bahromi.

Baytida "Kech kirib, quyosh Diloromi yuzini yashirgach, osmon Bahromi ham ko'z yoshi singari yulduzlarni olamga sochdi" degan bebaho o'xshatish yaratilganki, u shoh Bahromning qalbidagi g'amu qayg'u qorong'iligini bo'rttiradi, qorong'u tun uning joniga balo bo'lganligini ko'rsatadi.

Oradan asrlar o'tib sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning "Mehr qolur" she'rida u takrorlanadi.

O'tar qancha yillar to'zoni,
Yulduzlar – ko'z yoshi samoni.
O'tar inson yaxshi- yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Har bir inson dunyoga kelibdiki, o'zini anglashga, o'zini tushunish uchun tinimsiz izlanadi, o'rganadi. Lekin o'zligini anglamay o'tib ketayotgan soni qancha. M. Yusuf lirikasida tasvir ruhiyati o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shoir sre'riyatda so'z inson ma'naviyati va axloqini teran tahlillovchi estetik vositaga evriladi. Yetakchi hamda to'ldiruvchi g'oyalar idrokida bosqichma –bosqich xalqona ohangga yo'g'rilishi, sezgi taraqqiy topa borish layoqati o'tmish shoirlarini mahoratini amaliy jihatdan o'rganadi.

Qorachig'da porlagan o'sha,
Iqboliga chorlagan o'sha.
Dunyoni tor aylagan o'sha,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Shoirning qalbini tirnayotgan narsa ham aslida mehrdir balki. Balki o'zini taniy olmagan – inson, baxtsizlikni his eta ola biladimi.

Shu savollar yurakka bir dam tinchlik, xalovat bermaydi. Shoir bezovtalanadi, bular keyingi satrlarda ham oydinlasha boradi.

Anor sening yuzlaring, suluv,
Xumor sening ko'zlaring suluv,
Yodda qolmas izlaring suluv,
Mehr qolur, muhabat qolur.

Tashqi muhit bosimi, ijtimoiy turtki salmog'i ruhiy kechinma shiddatini oshiradi, benihoya rang-barang sezgi idrokiga teran kirib borishga zamin hozirlaydi. Shunga qaramasdan, odamzod tabiati ichki mohiyatini anglash hamisha murakkab kechadi.

Oqib ketdi suvlarda Tohir,
Zuhro yig'lab qoldi qon bag'ir.
Kelganda ham qiyomat oxir,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Muhabbat – bu har bir insonga beriladiga muqaddas tuyg'u. Muhabbat-shunday bir g'oyibona mamlakatki, har birimiz unga qarab o'z kemamizda goh ertaroq, goh kechroq suzimiz.

Nima deysan ey g'ayir inson,
G'iybatlaring qildi meni qon.
Sen ham bir kun o'tursan inon,
Mehr qolur muhabbat qolur.

Hayotning murakabligi ham shundaki, unda yaxshilik va yomonlik, adolat va tengsizlik, baxt va fojiya yonma –yon yashaydi.

Shoir odamzod tabiati mehrga moyilligini yuqoridagi satrlarda ham o'ychan, teran falsafiy fiklar izchilligida ifoda eta olgan.

Umuman, Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotida o'ziga xoslik yaratdi.

Uning shariyatida xalqona ohang kuchli bo'lib, unga dramatik ruh bera olish san'ati bilan boshqalardan farq qiladi.

Shoirning yutugi' ham ana shunda.